"TASDIQLAYMAN"
"O'zmilliybank" AJ Toshkent viloyati
Bosh boshqarma boshlig'i v.b.

_____ U.R.Shadiev

BXM, BXOlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi bo'yicha o'tkazilgan 4 - sonli yig'ilish BAYONI

Nurafshon shahri «20» fevral 2026 yil.

Yig'ilish raisi: O'zmilliybank AJ Toshkent viloyat Bosh boshqarma BXM, BXO rahbarlari.

Qatnashdilar: Angren (17 ta), Yangiyo'l (22 ta) va Bekobod (29 ta) bank xizmatlari markazlari, shuningdek, Olmaliq (13 ta), Oydin (15 ta), Zarxal (12 ta), G'azalkent (8 ta), Chirchiq (10 ta) va Toshkent shahar (7 ta) bank ofislari mudirlari va xodimlari qatnashdilar. ***(Умумий – 133 нафар ходим)***

KUN TARTIBI:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi hamda shu kabi boshqa tashkilotlarda o'tkazilgan tanqidiy yig'ilishlarning jamlangan video lavhasini ko'rsatish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan murojaatnomasida korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha bildirilgan fikr va ko'rsatmalar asosida tayyorlangan video rolik belgilangan tartibda namoyish etildi.

Mazkur video rolik BXM va BXO rahbarlari hamda xodimlari ishtirokida o'z ish joylarida ko'rib chiqildi.

Bunda Davlat rahbari tomonidan quyidagi so'lar takidlab o'tilgan:

Korrupsiya – davlat taraqqiyotiga to'siq bo'ladigan, adolat va qonun ustuvorligini izdan chiqaradigan, jamiyatda ishonch muhitini zaiflashtiradigan eng jiddiy tahdid.

Korrupsiyaga yo'l qo'yish esa – islohotlarimizga xiyonatdir. Bu illatga qarshi kurashish bo'yicha 2026 yilda "favqulodda holat" e'lon qilamiz. Barcha idoralarda komplaens va korrupsiyaga qarshi ichki nazoratga mas'ul o'rinbosar lavozimi joriy etiladi.

Hisob palatasining vakili faoliyati yo'lga qo'yiladi. Ushbu rahbarlar tizimdagi nopok shaxslarni aniqlash, shuningdek, byudjet mablag'i talon-toroj bo'lishi va mansabni suiiste'mol qilish holatlarining oldini olish bo'yicha ta'sirchan nazorat o'rnatadi va Prezident oldida hisobot beradi. Davlatning har bir so'm mablag'i, resursi bo'yicha shaxsiy javobgarlik kuchaytiriladi. "Lavozimim, unvonim bor, menga hech kim tegmaydi", deganlar adashadi. Qonun oldida hamma teng!

Ichki ishlar, prokuratura, soliq, bojxona, moliya, bank, yirik davlat kompaniyalari, vazirlik va hokimliklar, bir so'z bilan aytganda, birorta idora va tashkilot nazoratdan chetda qolmaydi.

Komplaens xizmatining faoliyatiga to'sqinlik qilganlar – korrupsiyaga sherik, deb baholanadi va javobgarlik shunga mos holda bo'ladi.

Prezident Administratsiyasi Komplaens xizmati - bu tizimni 2026 yil 1 yanvardan boshlab barcha davlat idoralari va tashkilotlarida ishga tushirib, jilovni mahkam qo'lga olsin.

Mansabidan qat'i nazar, poraxo'rlik va suiiste'molchilik bo'yicha har bir holat yuzasidan Prezident Administratsiyasi Komplaens xizmati shaxsan menga axborot kiritib boradi.

Video rolikda saboq bo'ladigan holatlardan — Davlat rahbarining IIV tizimi, mahalliy davlat hokimiyati va boshqa ayrim rahbar xodimlarga nisbatan jinoyat ishlari qo'zg'atilgani, bu holatlar lavozim, maqom yoki tanish-bilish hech kimni javobgarlikdan ozod qilmasligini yaqqol ko'rsatadigan so'lari tanlab olingan.

Video rolik namoyishidan so'ng ishtirokchilar bilan tushuntirish ishlari olib borildi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha belgilangan talab va vazifalarni amaliyotda qat'iy bajarish zarurligi yana bir bor uqtirildi.

Bayonlashtiruvchi **Z.M.Pulatov**

O'TMILLIYBANK
UNIVERSAL KASSA 1
UNIVERSAL KASSA 2



NBU

KASSA